

### *Islomda ayollarning ilm olishi va oiladagi o'rni haqidagi ba'zi mulohazalar.*

*Abdulfaizova Durdona*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti*

Har bir insonning o'rganishga, atrofdagilar bilan muloqotdagi ilmlarga ehtiyoji bor. Islom – ilm dini hisoblanadi. Shuning uchun ham ilk nozil bo'lgan oyati karima “iqro” so'zidan boshlanadi, ya'ni “o'qi” deyilgan. Erkaklar mukallaf bo'lgani kabi ayol-qizlarimiz ham mukallaf. Ularga ham taklifotlar, majburiyatlar, farz amallar yuklatilgan. Ayol kishi ta'lim olmasa, bularni ado etishi, qiyomatda javobgarligi uchun maa'uliyatni his qilishi qiyin. Muqaddas kitobimizda “Ey imon keltirganlar! O'zingizni ham, ahlingizni ham do'zax olovidan qutqaring, saqlang”, deyilgan. Do'zax olovidan esa faqat ilm bilan qutqarilish mumkin. Ahlingiz deyilganda esa yon-atrofdagi ularga tegishli bo'lgan ayollar (ona, rafiqqa, qizi, opa-singillar) nazarda tutilgan. Bu kalimaning ma'nosini chuqur anglab o'tgan solihlarimiz, hozirgi olimlarimiz o'zlariga tegishli xotin-qizlarini hech qachon ilmsiz qoldirmaydilar. Ular uchun hayotda nimaiki o'rganishlari kerak bo'lsa, o'shani o'rganishlari uchun sharoit yaratib berganlar. Ular uchun oxiratda so'raladigan mas'uliyatlarining ham ta'limini berib boradilar. *Alloma Abdulhamid ibn Bodis “Agar o'g'il bolaga ta'lim bersang, bir shaxsga ta'lim bergan bo'lasan. Agar qiz bolaga ta'lim bersang, butun ummatga ta'lim bergan bo'lasan” degan edi. Darhaqiqat qizlar ummat tarbiyachisi hisoblanadi. Afsuski ayrim oilalarda ayolga faqat uy bekasi sifatida qaraladi. Ayolning ovqatni shirin pishirishi, uylarni ozoda saqlashi uning ilm olishidan ko'ra muhimroq hisoblanadi.*

Islom ayol kishiga ta'lim olish va madaniy saviyasini oshirish haqqini berdi va erkaklarni bu ishga mas'ul qildi. Ilm talabi erkak-ayolga barobar farz, qizlariga va singillariga ta'lim-tarbiya bergan kishi jannatga haqli bo'ladi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning bir hadislariga nazar soladigan bo'lsak, o'sha

davrda qul tutish odati bor edi. Allohga hamdlar bo'lsinki, hozirda bunday amallar qolmadi. Ular aytdilarki: "Kim bir joriyasini (cho'risini) yaxshi odob berib, ta'lim bersa va uni ozod qilsa yoxud uylanish istagi paydo bo'lib oila qursa unga ikki ajr border". Demak, cho'ri xotin-qizni oilali, baxtli-saodatli qilib, ta'minlash barobarida uni ilimli qilish evaziga katta mukofot va'da qilingan.

Bir joriyaning ta'limiga e'tibor bergan islom shariati ozod ayollarga ta'lim olish huquqini undan-da ziyoda etib qo'ygan. Ta'kidlash kerakki, biror oyat yoki biror hadisda qizlarga ilm shart emas, ular faqat uyda o'tirib o'z vazifasini bajarsin, deyilmagan. Ayol kishi faqat eriga qarashi, bolalarini boqish bilan kifoyalanishi kerak, deyilmagan.

Shu o'rinda payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan kelgan "Ilm olmoqlik har bir musulmon erkak va ayolga farzdir" hadisi sharifni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda, shariat ahkamlari bayon qilingan dalillarda faqat erkaklar zikr qilinadi. Ulamolar aytishadiki, ayollar erkaklarning safdoshi hisoblangani uchun hukm ayollarga ham taalluqli bo'ladi. Faqat fitratan ayollar nozikroq yaratilgani, fikrlashida his-tuyg'u o'rin egallaganligi uchun hukmlarda shunga yarasha ozgina farq bor. Lekin hurmatga loyqlikda, ilm olishda erkaklar bilan tengdirlar. Payg'ambarimiz mazkur hadislarida esa ayollar nomi alohida zikr qilingan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning barcha ahli ayollari ilimli bo'lishgan. Ular Qur'on yodlagan, fatvo berishda, fihiy masalalarda o'z zamonasining peshvolaridan bo'lishgan. Katta-katta sahobiylar kelib ulardan maslahat so'rashgan. Agar bu nojoiz bo'lganida, undan ko'ra xayriroq amallar bo'lganda edi, avvalo payg'ambarimiz o'shani amalga oshirgan bo'lardilar.

Shuningdek, musulmon odam ilmni diniy dunyoviyga ajratib o'tirmaydi. Har biri musulmon uchun muhim hisoblanadi. Agar bu o'rganganlari orqali o'ziga, qolaversa, jamiyatga foyda berishlikni niyat qilgan bo'lsa, bu mashaqqati ibodat darajasiga ko'tariladi. Shuning uchun qaysidir ilmlarni biz bu dunyoviy savobi yo'q deb aytishimiz shar'an to'g'ri bo'lmaydi.

Olima ayollar vakilasi Oisha onamiz hadis rivoyat qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadilar. Ulkan sahobiylar o'zlari bilmagan narsalarini, hal qila olmay

qolgan masalalarini Oisha onamizdan so‘rar edilar. O‘sha vaqtning sharoitida bu narsalar dunyo miqyosida katta o‘zgarishlar edi. Muslima ayolning jamiyat, siyosat va shariat maydonlarida ham keragicha o‘z ulushi bo‘lgan. Muslima ayolning to‘g‘ri fikrini, haq ovozini zabardast xalifa ham, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam ham, Alloh taoloning O‘zi ham eshitgan, qabul qilgan. Islom ayollarning hurmat-ehtiromini o‘rniga qo‘yib, ayollik latofatlarini saqlab qolishlari uchun, ayollik vazifalarini to‘liq ado etish orqali o‘z jamiyatlariga, vatanlariga, dinlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun barcha sharoitni yaratib bergan. Islom erkaklarga mos bo‘lgan og‘ir ishlarni ayollarga farz qilmagan, lekin ayollarga xos ba‘zi ishlarni erkaklarga xos ishlar ila tenglashtirib, ular bilan teng ajr olishni joriy qilgan. Misol uchun, ayollarning tug‘ishdagi qiynoqlarini erkaklarning dushmanga qarshi jihodiga tenglashtirgan. Bu ma’nolar o‘z haq-huquqini talab qilib chiqqan muslima ayollar sharofati ila Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan bayon qilingan.

Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda zikr qilinishicha, Asmo’ bint Zayd al-Ansoriyya roziyallohu anho Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: “Ey Allohning Rasuli, men ortimdagi muslima ayollar jamoasining elchisiman. Ular mening so‘zimni aytadilar va mening fikrimga o‘xshash fikrdalar: Albatta, Alloh sizni erkak va ayollarga yuborgan. Biz sizga iymon keltirdik va ergashdik. Biz – ayollar jamoasi tutilib, o‘ralib uyda o‘tirib qolganmiz. Erkaklarning shahvat mavzesi, bolalaringizning ko‘taruvchilarimiz. Erkaklar jamoat va janozaga hozir bo‘lish ila afzal qilindilar. Qachon ular jihodga chiqsalar, ularning mollarini muhafaza qilamiz, bolalarini tarbiya qilamiz, ularga ajrda sherik bo‘lamizmi?!” dedi. Shunda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam muborak yuzlarini o‘z sahobalariga o‘girib qaradilar-da: “O‘z dini haqida ushbu ayoldan ko‘ra yaxshiroq savol bergan ayolning gapini eshitganmisizlar?” dedilar. “Yo‘q, ey Allohning Rasuli”, deyishdi ular.

“Ey Asmo’”, qaytib borib, ortingdagi ayollarga bildirki, albatta, sizning biringizning yaxshi er tutishi, uning roziligini istashi, muvofiq bo‘lganiga

ergashishi sen zikr qilgan narsalarga teng keladi”, dedilar. Asmo’ o‘ziga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytgan narsalardan sevinganidan “Laa ilaaha illalloh»ni aytib qaytib ketdi”. Islomiy nuqtai nazarda bola tarbiyasi, kelajak avlodni ko‘ngildagidek qilib yetishtirish, oila mustahkamligi ayollarning ko‘chaga chiqib, o‘ziga mos bo‘lmagan ishlarni qilib, to‘rt-besh tanga pul topganidan, askarlik qilganidan yoki asfal’t yotqizganidan afzal hisoblanadi.

Ko‘pgina islom ta’lim muassasalarining barpo etilishida ayollar muhim rol o‘ynagan, masalan, Fotima al-Fihriy 859-yilda Al-Qaravin universitetiga asos solgan. XII asrda yashagan Ibn Asakirning yozishicha, Islom olamida ayollarning bilim olishi uchun katta imkoniyatlar mavjud edi. U ayollarning o‘qishi, ilmiy darajalarga ega bo‘lishi, olim va o‘qituvchi bo‘lishlari mumkinligini yozgan. Islom olamidagi ayollarni Muhammad payg‘ambar s.a.v ning muvaffaqiyatli tadbirkor ayoli Xadicha r.a va hadis ilmida taniqli olima Oisha rahimahulloh ilhomlantirgan. Muhammad s.a.v madinalik ayollarni diniy ilmga chanqoqligini maqtagani haqida hikoya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, islomda hech qachon ayollar ikkinchi darajali, uyida o‘tirishi kerak bo‘lgan qatlam sifatida ko‘rilmaydi. Haqiqiy Allohni tanigan insonlar, din qayg‘usida bo‘ladigan olimlar, albatta, qizlarini o‘qitishga, ularning ilmi bo‘lishlariga e’tibor qaratishadi. Hozirda qizlar ta’limiga imkon qadar urg‘u berilyapti, kun kelib bu harakatlarning natijasida dinimizga, jamiyatimizga, xalqimizga foyda bo‘ladi. Buning natijasida jamiyatdagi ayollar bilan bog‘liq yechim topmayotgan muammolar o‘z-o‘zidan barham topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: Toshkent islom universiteti, 2004.
2. <https://solncesvet.ru>
3. <https://namozvaqtlari.com>.
4. <https://daryo.uz>
5. <https://kun.uz/>